O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOQIYEV QUDRAT SIROJIDDIN O‘G‘LI

MISHYAK VA SIMOB IONLARINI ANIQLASH UCHUN MODIFIKATSIYALANGAN GRAFIT ASOSIDAGI ELEKTROKIMYOVIY SENSORLAR ISHLAB CHIQISH

02.00.02 – Analitik kimyo

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘T. 543.251:541.25:541.13:541.8

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по химии

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Chemical Sciences

Boqiyev Qudrat Sirojiddin o‘g‘li
Mishyak va simob ionlarini aniqlash uchun modifikatsiyalangan grafit asosidagi elektrokimyoviy sensorlar ishlab chiqish……..... 3

Бокиев Кудрат Сирожиддин угли
Разработка электрохимических сенсоров на основе модифицированного графита для определения ионов мышьяка и ртути…….. 21

Bokiev Kudrat Sirojiddin ugli
Development of modified-graphite-based electrochemical sensors for the determination of arsenic and mercury ions..…….…..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….……..... 45

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOQIYEV QUDRAT SIROJIDDIN O‘G‘LI

MISHYAK VA SIMOB IONLARINI ANIQLASH UCHUN MODIFIKATSIYALANGAN GRAFIT ASOSIDAGI ELEKTROKIMYOVIY SENSORLAR ISHLAB CHIQISH

02.00.02 – Analitik kimyo

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/K1116 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (ik-kimyo.nuu.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ziyayev Dilshod Abdullayevich** kimyo fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Abduraxmonov Ergashboy** kimyo fanlari doktori, professor
	Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna kimyo fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “01” 12 soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-07-88; (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; (+99871) 246-02-24 e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (299 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Tel.: (+99871) 246-07-88; (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz.

Dissertatsiyaning avtoreferati 2026-yil “20” 11 da tarqatildi
(2026-yil “18” 11 dagi 37 raqamli reestr bayonnomasi).

T.S.Xoliqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

U.O‘.Ro‘zmetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi k.f.d., professor v.b.

Z.A.Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoda sanoatning jadal rivojlanishi, tog‘-kon va metallurgiya korxonalari faoliyati, yoqilg‘i resurslarining qazib olinishi va qayta ishlanishi natijasida atrof-muhit obyektlarining mishyak va simob birikmalari bilan ifloslanishi ortib bormoqda. Ushbu elementlarning yuqori zaharliligi, tirik organizmlarda bioakkumulyatsiyalanishi hamda juda past konsentratsiyalarda ham inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ularni tezkor va ishonchli aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shuning uchun As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash yuqori sezgirlik va selektivlikka ega, iqtisodiy jihatdan samarali, tayyorlanishi sodda bo‘lgan modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlarni ishlab chiqish hamda ularni tabiiy va texnogen suv obyektlari tahlilida qo‘llash muhim amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon ilmiy manbalarida og‘ir va zaharli metall ionlarini aniqlash uchun turli nanomateriallar, organik reagentlar va funksional guruhlar bilan modifikatsiyalangan elektrodlarni ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab ma’lumotlar mavjud. Xususan, grafen oksidi, oltingugurt va azot saqlovchi organik birikmalar asosida tayyorlangan elektrodlarning elektrokimyoviy faolligi, sorbsion xususiyatlari hamda metall ionlariga nisbatan selektivligi modifikatorning tabiati, tarkibi va miqdori, elektrod yuzasining tuzilishi, fon elektrolit tarkibi, eritma pH qiymati, to‘planish potensiali va vaqtiga bog‘liqligi aniqlangan. Shuni inobatga olgan holda, grafen oksidi/tiomochevina modifikatorining optimal tarkibini tanlash, uning grafit elektrod yuzasidagi faol markazlarini aniqlash, As(III) va Hg(II) ionlarining to‘planish hamda elektrokimyoviy oksidlanish qonuniyatlarini o‘rganish, shuningdek, elektrodning tuzilishi va analitik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy hamda amaliy jihatdan asoslash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda tog‘-kon, metallurgiya, kimyo sanoati tarmoqlarining rivojlanishi va global iqlim o‘zgarishlari tabiiy hamda texnogen suv obyektlarining mishyak va simob kabi zaharli elementlar bilan ifloslanishiga olib kelmoqda, ushbu elementlarni aniqlash uchun sezgir, selektiv va kam xarajatli modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlarni ishlab chiqish hamda ular asosida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida “suv resurslarini tejash, ulardan oqilona foydalanish va ifloslanishining oldini olish”ga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shunga asoslanib, so‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati suv resurslarini muhofaza qilish, ularning sifatini nazorat qilish va ekologik monitoring tizimini xalqaro standartlar darajasida takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Jumladan, bu vazifalar 2020-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-6024) va 2022-yildagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-436)da o‘z ifodasini topgan.

Ushbu dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030”

strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tabiiy va texnogen suvlar tarkibidagi mishyak(III) va simob(II) ionlarini aniqlash so‘nggi yillarda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar obyekti bo‘lib kelmoqda. Ushbu elementlar bilan ifloslanishni nazorat qilishda ularning kichik konsentratsiyalarini ishonchli aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois, suv namunalari tarkibidagi As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashning sezgir, selektiv va takrorlanuvchan elektrokimyoviy usullarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyo bo‘yicha mishyak va simob ionlarini elektrokimyoviy aniqlashga doir tadqiqotlarda turli elektrod materiallari hamda modifikatorlardan foydalanishga asoslangan yondashuvlar taklif qilingan. Ushbu ishlarda aniqlanuvchi komponentlarni elektrod yuzasida oldindan to‘plash, begona ionlarning xalaqit beruvchi ta’sirini kamaytirish va analitik signalning barqarorligini ta’minlash masalalari o‘rganilgan. Bu yo‘nalishda jahon olimlaridan A.A.Sheremet, S.S.Ermakov, L.N.Moskvin, B.P.Shipunov, I.E.Stas, T.A.Pel’ganchuk, N.P.Matveyko, A.I.Kulak, C.Garnier, L.Lesven, G.Billon, A.Magnier, O.Mikkelsen, M.Chao, C.Ma, G.M.Zagorovskiy, I.G.Sydorenko, S.N.Limaye, D.A.Dedkova, S.V.Lukashov, Dongpeng Mao, Penghu Duan, Yunxian Piao, G.K.Budnikov, G.A.Yevtyugin, V.N.Maystrenko va boshqa olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda A.M.Gevorgyan, D.A.Ziyayev, Z.Z.Yaxshiyeva, A.S.Asrorov, M.M.Sultonov, S.Tillayev, E.Abduraxmonov, S.D.Aranbayev, N.T.Turabov, N.H.Qutlimurotova, Z.A.Smanova va boshqa olimlar tomonidan elektrokimyoviy aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqotlarda elektrodlarni modifikatsiyalash va aniqlash sharoitlarini boshqarish uchun turli organik hamda noorganik birikmalardan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotlarni davom ettirishda grafen oksidi/tiomochevina kompozitsiyasi bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodning sirt tuzilishi, elektrokimyoviy xususiyatlari va As(III) hamda Hg(II) ionlariga nisbatan analitik samaradorligini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish muhimdir. Shu bois, mazkur kompozitsiya asosida modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensor ishlab chiqish, ionlarni inversion-voltamperometrik aniqlashning optimal sharoitlarini belgilash hamda uslubning tabiiy va texnogen

suvlar tahlilidagi ishonchliligini baholash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20171024319 "Og'ir va zaharli element ionlarini aniqlashda elektrokimyoviy sensorlarni ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental va amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: mishyak va simob ionlarini aniqlash uchun modifikatsiyalangan grafit asosidagi elektrokimyoviy sensorlar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mishyak(III) va simob(II) ionlarini inversion voltamperometrik usulda aniqlash uchun grafit asosidagi modifikatsiyalangan elektrod ishlab chiqishning ilmiy asoslarini belgilash;

grafit asosidagi ishchi elektrod uchun mos modifikatorlarni tanlash va ularning As(III) hamda Hg(II) ionlariga nisbatan analitik samaradorligini qiyosiy baholash;

modifikatsiyalangan elektrod tarkibi va tayyorlash sharoitlarini optimallashtirish hamda elektrodning morfologik, tarkibiy va elektrokimyoviy xossalarini aniqlash;

As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda fon elektrolitining turi, eritmaning pH qiymati, to'planish potensiali va vaqtining analitik signalga ta'sirini aniqlash;

taklif etilgan elektrod yordamida As(III) va Hg(II) ionlari uchun chiziqli aniqlash oralig'i, aniqlash chegarasi va miqdoriy aniqlash chegarasini baholash;

ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan elektrodning metrologik ko'rsatkichlarini baholash hamda mishyak(III) va simob(II) ionlarini mikro miqdorlarda aniqlashdagi analitik imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida As(III) va Hg(II) ionlari, grafen oksidi, tiomochevina, grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan grafit elektrod, model eritmalar hamda tabiiy va texnogen suv namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodning sirt tuzilishi va elektrokimyoviy xususiyatlari, As(III) va Hg(II) ionlarining elektrod yuzasida to'planish hamda oksidlanish jarayonlari, ularni inversion-voltamperometrik aniqlashning optimal sharoitlari va analitik-metrologik tavsiflash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Inversion voltamperometriya, siklik voltamperometriya, elektrokimyoviy impedans spektroskopiyasi, SEM, EDS, IQ-spektral tahlil, induktiv bog'langan plazmali spektrometriya (ICP) va rentgen-fluoressent analiz.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor grafen oksidi tiomochevina bilan funksionallashtirilib, As(III) va Hg(II) ionlarini inversion voltamperometrik aniqlashga mo'ljallangan grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan grafit elektrod ishlab chiqilgan;

SEM–EDS va IQ usullari yordamida ishlab chiqilgan elektrod sirtining qatlamli-g'ovak tuzilishi, element tarkibi hamda grafen oksidi va tiomochevina

o‘rtasida hosil bo‘lgan funksional bog‘lar aniqlanib, modifikator tarkibidagi kislorod, azot va oltingugurt tutuvchi faol markazlarning As(III) va Hg(II) ionlarini to‘plashdagi o‘rni asoslangan;

grafen oksidi, ditizon, L-sistein, natriy dietilditiokarbamat va grafen oksidi/tiomochevina modifikatorlarining elektrokimyoviy xususiyatlari qiyosiy o‘rganilib, As(III) va Hg(II) ionlariga nisbatan eng yuqori analitik signal grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan elektrodda kuzatilishi isbotlangan;

siklik voltamperometriya va elektrokimyoviy impedans spektroskopiyasi yordamida modifikatsiyalangan elektrodning elektrofaol sirt yuzasi 0,1686 sm^2 ekanligi, uning modifikatsiyalanmagan elektrod yuzasiga nisbatan qariyb 2 marta kattaligi hamda modifikatsiya natijasida elektrod yuzasida elektron almashinish va massa ko‘chirish jarayonlari yaxshilanishi aniqlangan;

ilk bor As(III) va Hg(II) ionlarini grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodda aniqlashning optimal sharoitlari belgilanib, Britton–Robinson bufer eritmasida pH 5,0–6,0, to‘planish potensiali –0,8 V va to‘planish vaqti 140 sekund ekanligi asoslangan;

As(III) ionlari uchun 1,0–100 μg/l, Hg(II) ionlari uchun 0,5–80 μg/l konsentratsiya oralig‘ida chiziqli bog‘lanish mavjudligi aniqlanib, ularning aniqlash chegaralari mos ravishda 0,18 va 0,07 μg/l hamda miqdoriy aniqlash chegaralari 0,55 va 0,22 μg/l ekanligi isbotlangan;

ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan elektrodning selektivligi, takrorlanuvchanligi va barqarorligi aniqlanib, As(III) uchun 36 kun, Hg(II) uchun 38 kun davomida analitik faolligini saqlashi hamda ishlab chiqilgan uslub tabiiy, oqova va sanoat suv namunalaridagi As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashga tavsiya etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash uchun grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodni tayyorlash hamda undan inversion-voltamperometrik tahlilda foydalanishning qulay sharoitlari aniqlangan;

ishlab chiqilgan elektrod yordamida As(III) va Hg(II) ionlarini oldindan elektrod yuzasida to‘plash va miqdoriy aniqlash uslubi ishlab chiqilgan, bunda aniqlash chegaralari mos ravishda 0,18 va 0,07 μg/l ni tashkil etishi, analitik signalning konsentratsiyaga chiziqli bog‘lanishi esa 1,0–100 va 0,5–80 μg/l oraliqlarida kuzatilishi aniqlangan;

ishlab chiqilgan uslub daryo, yerosti, oqova va sanoat zonasi suvi namunalaridagi As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda qo‘llanilgan hamda model eritmalar va real namunalar tahlili asosida uning amaliy qo‘llanish imkoniyati baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umumiy qabul qilingan standartlar asosida o‘tkazilgan qiyosiy tahlil, qo‘shimchalar qo‘shish, “kiritildi-topildi” usuli hamda standart namunalar bilan taqqoslash orqali asoslangan. Olingan natijalar matematik statistika usullari bilan qayta ishlab chiqilgan va rentgen-fluoressent, ICP tahlil usullari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan grafit elektrodning sirt tuzilishi, funksional guruhlari va elektrokimyoviy xususiyatlari o‘rganilgani, turli modifikatorlarning As(III) va Hg(II) ionlari analitik signaliga ta’siri qiyosiy baholangani, shuningdek, ushbu ionlarni inversion-voltamperometrik aniqlashda fon elektrolit tarkibi, eritma muhiti, to‘planish potensiali va vaqtining ta’siri aniqlangani hamda olingan natijalar zamonaviy fizik-kimyoviy va elektrokimyoviy tahlil usullari asosida izohlangani bilan belgilanadi. Ushbu natijalar grafit elektrodlarni modifikatsiyalash orqali ularning analitik xususiyatlarini boshqarish haqidagi ilmiy tasavvurlarni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash uchun grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan grafit elektrod hamda undan foydalanishga asoslangan inversion-voltamperometrik uslub ishlab chiqilgani, uning analitik-metrologik tavsiflari baholangani hamda tabiiy hamda texnogen suv namunalari tahlilida qo‘llangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turli xil suv namunalari tarkibidan As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashning yangi modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlarni qo‘llash orqali inversion-voltamperometrik uslubini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida: As(III) va Hg(II) ionlarini modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlar yordamida inversion-voltamperometrik aniqlash usuli O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Milliy referens laboratoriyasida qo‘llab ko‘rilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2026-yil 21-fevraldagi 03-21/1969-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan usul turli begona ionlar mavjud bo‘lgan murakkab tarkibli real suv namunalarida As(III) va Hg(II) ionlarini yuqori sezgirlik hamda selektivlik bilan aniqlash imkonini bergan.

As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash usuli O‘zbekiston Respublikasi “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” korxonasining “Markaziy zavod laboratoriyasida” (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekneftgaz” AJ “Muborak gazni qayta ishlash zavodi” korxonasining 2026-yil 01-iyun 06-1720-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, texnologik suv tarkibida bir qancha element ionlari tutgan eritma tarkibidan As(III) va Hg(II) ionlarini yuqori sezgirlikda aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 4 ta Xalqaro va 7 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 ta Respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, adabiyotlar sharhi, tajriba qismi, tahlil va muhokamalar, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlardan

iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ko‘rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan, tadqiqotning obyekti va predmeti keltirilgan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatildi. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Dissertatsiya natijalarini joriy qilish ro‘yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida **“Mishyak va simob ionlarini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida mishyak va simob ionlarini turli modifikatsiyalangan elektrokimyoviy sensorlar yordamida aniqlash, shuningdek, og‘ir va zaharli ionlarni turli obyektlar tarkibidan voltamperometrik aniqlash bo‘yicha mavjud usul va natijalar umumlashtirilgan. Bu bob tadqiqot obyektini ya’ni tabiati turlicha bo‘lgan fon elektrolitlarni, anodli inversion-voltamperometriya, vizual-test usullarini, shuningdek optik va elektrokimyoviy sensorlarni qo‘llash bo‘yicha mavjud bilimlarni tizimlashtiradi. Bundan tashqari, tabiiy va turli hududlarning oqova suvlaridan mishyak va simob ionlarini aniqlashning optik, elektrokimyoviy va boshqa zamonaviy fizik-kimyoviy usullari tahlil qilindi.

Turli obyektlarda og‘ir va zaharli ionlarni aniqlash natijalari tizimlashtirildi. Qayd etildiki, grafen oksidi/tiomochevina asosidagi modifikator bilan modifikatsiyalangan elektrodda mishyak va simob ionlarini inversion-voltamperometrik aniqlash bo‘yicha adabiyotlarda yetarlicha ma’lumotlar mavjud emas.

Dissertatsiyaning **“Mishyak va simob ionlarini aniqlashda ishlatiladigan asboblar va reaktivlar hamda eritmalarni tayyorlash usullari”** nomli ikkinchi bobida kerakli asbob-uskunalar, jihozlar, mishyak va simob ionlarining, shuningdek organik reagentlarning standart va ishchi eritmalarini tayyorlash, ishchi elektrodlarni modifikatsiyalash bosqichlari, ionlarni aniqlash va olingan natijalarning aniqligini baholashda qo‘llanilgan usullar bayon qilindi. Ma’lumki, modifikatsiyalangan qattiq elektrokimyoviy sensorning xossalari avvalo ko‘mir pastasini tashkil etuvchi komponentlar nisbatiga bog‘liq. Shu sababli, grafit kukuni, mum va modifikatorning turli nisbatlaridan (og‘irligi bo‘yicha) iborat aralashmalar tayyorlandi. Aralashmadagi grafit miqdorining ortishi bilan elektrokimyoviy sensorning elektr o‘tkazuvchanligi oshadi va optimal nisbatlarni aniqlash zarurati yuzaga keldi.

Tadqiqot davomida mishyak(III) va simob(II) ionlarini aniqlash uchun grafen oksidi/tiomochevina (GO/TM) modifikatsiyalangan grafit elektrod ishlab chiqildi. Ishchi elektrod tarkibi va modifikator miqdori optimallashtirilib, uning analitik signalga ta’siri, selektivlik va barqarorligi o‘rganildi.

Elektrod asosiy materiali sifatida grafit tanlandi. Grafit delokallashgan π-elektronlar tizimi orqali elektron almashinish jarayonlarini tezlashtiradi va

oksidlanish-qaytarilish signallarining barqaror shakllanishini ta’minlaydi. Grafitning yuqori elektr o‘tkazuvchanligi, kimyoviy inertligi va rivojlangan sirt yuzasi analit ionlarining adsorbsiyasi va oldindan konsentratsiyalanishini kuchaytiradi. Shu sababli u As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash uchun ideal asos sifatida ishlatiladi.


Elektrod tarkibiga As(III) va Hg(II) ionlari bilan selektiv ta’sirlashuvchi modifikator kiritildi. Buning uchun tiomochevina bilan funksional modifikatsiya qilingan grafen oksidi ishlatildi. Ushbu modifikator donor atomlari (N, S, O) orqali As(III) va Hg(II) ionlarini elektrod yuzasida selektiv ushlab qoladi va oldindan konsentratsiyalash imkonini beradi. Turli modifikatorlar (ditizon, L-sistein, natriydietilditiokarbamat, grafen oksidi, grafen oksidi/tiomochevina) qiyosiy baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, grafen oksidi/tiomochevina modifikatori As(III) va Hg(II) ionlari uchun eng yuqori signal intensivligi, selektivlik va barqarorlikni ta’minladi (1-jadval).

1-jadval


Modifikatorlarning umumiy taqqoslanishi

Modifikator	As(III), µA	Hg(II), µA	O‘rtacha S%	O‘rtacha B%
Ditizon	5,9	6,4	86,5	81,5
L-sistein	6,8	7,5	91,3	85,3
Natriydietilditiokarbamat	7,6	8,2	89,3	88,0
Grafen oksidi	9,3	9,8	93,7	95,5
Grafen oksidi/tiomochevina	12,4	13,1	97,5	98,3

Modifikatsiya jarayoni Hummers usuli asosida grafen oksidini sintez qilishdan boshlanib, uni tiomochevina bilan funksional modifikatsiyalash orqali yakunlandi (3.1–3.2-rasmlar). Ushbu jarayon natijasida hosil bo‘lgan modifikator elektroaktiv yuzaga biriktirilib, As(III) va Hg(II) ionlarini selektiv ushlab qolish xususiyatiga ega bo‘ldi. IQ-spektral tahlil natijalari modifikatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshganini tasdiqladi va modifikator tarkibida –OH, C=O, –NH, C–N, amidga xos bog‘lar va N–C=S fragmentlari mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bu funksional guruhlar As(III) va Hg(II) ionlarini elektrod yuzasida samarali kompleks hosil qilishi va analitik signalni oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.



1-rasm. Grafen oksidining IQ-spektri



2-rasm. Grafen oksidi/tiomochevina modifikatorining IQ-spektri

Ishchi elektrod grafit, GO/TM modifikatori va tritolilfosfat tarkibida tayyorlandi.

2-jadval

Grafen oksidi/tiomochevina modifikatori miqdorining ishchi elektrod xossalariga ta’siri

Modifikator miqdori, %	Ip As(III), µA	Ip Hg(II), µA	Selektivlik, %	Barqarorlik, %
5	5,76	6,28	83,7	78,9
10	8,43	9,12	89,1	85,6
15	10,86	11,74	93,8	92,4
20	12,37	13,16	96,7	97,3
25	11,58	12,21	94,6	93,9
30	9,94	10,68	90,8	88,2

Modifikator miqdori As(III) va Hg(II) ionlari pik tokiga, selektivlik va barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Optimal miqdor 20% grafen oksidi/tiomochevina bo‘lib, u As(III) uchun 12,37 µA, Hg(II) uchun 13,16 µA pik toki va 96,7–97,3% darajasida selektivlik va barqarorlik ko‘rsatkichlarini ta’minladi.

3-jadval

Modifikatsiya haroratining ishchi elektrod xossalariga ta’siri

Harorat, °C	Ip As(III), µA	Ip Hg(II), µA	Selektivlik, %	Barqarorlik, %
25	7,48	8,03	86,8	83,4
30	8,12	8,69	87,6	84,7
35	8,76	9,38	89,2	86,5
40	9,57	10,24	90,7	88,6
45	10,34	10,96	92,5	90,8
50	11,02	11,82	94,1	92,7
55	11,76	12,48	95,8	95,6
60	12,39	13,14	96,9	97,4
65	12,03	12,72	95,7	96,1
70	11,46	12,08	94,2	93,6
75	10,72	11,41	91,8	90,9
80	9,86	10,57	89,6	88,4

Modifikatsiya harorati ham elektrodning analitik xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. 25–60 °C oralig‘ida signal ortdi va maksimal qiymat 60 °C da kuzatildi. Bunda As(III) 12,39 µA, Hg(II) 13,14 µA; selektivlik 96,9%, barqarorlik 97,4% ga

teng bo‘ldi.


Yuqori haroratlarda signal pasaydi, bu elektrod yuzasining qisman agregatsiyalanishi va donor guruhlarning faolligining kamayishi bilan izohlanadi.

Optimallashtirilgan o‘lchov sharoitlari sifatida Britton-Robinson bufer fon elektrolit sifatida tanlandi, pH qiymati 5-6 oralig‘ida, to‘planish potensiali -0,8 V, to‘planish vaqti As(III) – 120 s, Hg(II) – 140 s bo‘ldi. Ushbu parametrlar tanlanganida elektrod yuzasida As(III) va Hg(II) ionlarining adsorbsiyasi va elektroanalitik signal hosil bo‘lish jarayoni maksimal darajada amalga oshdi. O‘lchovlar davomida analitik signallar maksimal va barqaror bo‘lib, elektrodning sezgirligi, takrorlanuvchanligi va aniqlik darajasi optimal bo‘ldi. Shu bilan birga, ushbu sharoitlar turli suv namunalarida modifikatsiyalangan elektrodning samarali ishlashini ta’minlab, As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda yuqori sezgirlik va selektivlikni kafolatladi.


4-jadval

Fon elektrolit tarkibining analitik signalga ta’siri

№	Fon elektroliti	O‘rganilgan konsentratsiya yoki pH oralig‘i	Optimal konsentratsiya va pH	I_p (As), µA	I_p (Hg), µA
1	HCl	0,010–0,100 mol/l	0,050 mol/l	8,6	9,2
2	HNO_3	0,010–0,100 mol/l	0,050 mol/l	8,1	8,8
3	H_2SO_4	0,005–0,050 mol/l	0,020 mol/l	7,8	8,4
4	NaCl	0,050–0,200 mol/l	0,100 mol/l	9,0	9,6
5	KCl	0,050–0,200 mol/l	0,100 mol/l	9,3	9,9
6	$NaNO_3$	0,050–0,200 mol/l	0,100 mol/l	8,9	9,5
7	KNO_3	0,050–0,200 mol/l	0,100 mol/l	9,1	9,7
8	Atsetat buferi	pH 3,6–5,6	pH 4,5–5,0	10,8	11,6
9	Fosfat buferi	pH 5,8–8,0	pH 6,0	10,1	10,9
10	Britton–Robinson	pH 3,0–11,0	pH 5,0–6,0	12,4	13,1




3-rasm. Eritma muhiti pH qiymatining analitik signalga ta’siri




4-rasm. As(III) va Hg(II) ionlarining inversion pik tokiga to‘planish potensialining ta’siri

Olingan voltamperogrammalar tahlilida pik toki As(III) 6,1 µA dan 13,2 µA, Hg(II) 16,7 µA dan 30,3 µA ga oshdi. Piklar orasidagi ajralish ΔE 0,11 V dan 0,24

V ga yetdi, bu ikki ionni bir tizimda aniqlash imkonini kuchaytirdi.




5-rasm. To‘planish vaqtining As(III) va Hg(II) ionlari analitik signaliga ta’siri



6-rasm. Oddiy grafit elektrod va grafen oksidi/tiomochevina bilan modifikatsiyalangan elektrodda As(III) hamda Hg(II) ionlarining inversion voltamperogrammalari


Elektrod yuzasining morfologik va element tarkibi SEM va EDS yordamida batafsil baholandi. Modifikator qo‘llangan elektrodda sirt qatlamli, g‘ovak va notekis tuzilma kuzatildi, bu esa faol markazlar sonining ortganligini ko‘rsatadi. EDS tahlili esa C, O, N, P va S elementlarining mavjudligini tasdiqladi, bu modifikatorning elektrod yuzasiga samarali biriktirilganini va As(III) hamda Hg(II) ionlarini selektiv ushlab qolishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, morfologik xususiyatlar elektrodning sezgirligi va analitik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.




7-rasm. A–Oddiy grafit elektrod yuzasining SEM tasviri va B–GO/TM bilan modifikatsiyalangan elektrod yuzasining SEM tasviri

Modifikatsiyalangan elektrodning elektroaktiv yuzasi siklik voltamperometriya yordamida $[Fe(CN)_6]^{3-/4-}$ redoks tizimida aniqlanib, uning elektron almashinish jarayonlaridagi faol hududi baholandi. Rendles–Shevchik tenglamasi asosida hisoblash natijalari ko‘rsatdiki, elektrodning elektroaktiv yuzasi A = 0,1686 sm^2 ga teng bo‘lib, bu modifikatsiyalanmagan grafit elektrodga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Ushbu natija elektrod yuzasining samarali kengaytirilgan mikroporoz tuzilishini aks ettiradi va elektron transfer jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, modifikatsiyalangan elektrod As(III) va Hg(II) ionlarini yuqori sezgirlik

va aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi, bu esa uning real suv namunalaridagi qo‘llanilishi va analitik barqarorligini mustahkamlaydi. Bu tahlil natijalari elektrodning morfologik va elektrokimyoviy xususiyatlarini baholashda muhim parametr sifatida xizmat qiladi.




8-rasm. Modifikatsiyalangan elektroddagi $[Fe(CN)_6]^{3-/4-}$ redoks sistemasining turli skanerlash tezliklaridagi siklik voltammogrammalari



9-rasm. Anod pik tokining skanerlash tezligining kvadrat ildiziga bog‘liqlik grafigi

Elektrokimyoviy impedans spektroskopiyasi (EIS) yordamida Nyquist diagrammalari tahlil qilindi. Yarim aylana shaklidagi ko‘rinish zaryad uzatilish jarayonining mavjudligini ko‘rsatdi, past chastotadagi chiziq esa diffuzion jarayonlar ishtirokini bildiradi. Eritma qarshiligi $R_E = 61\ \Omega$, zaryad uzatish qarshiligi $R_{ct} = 925\ \Omega$ sifatida aniqlangan.



10-rasm. Grafit asosidagi modifikatsiyalangan elektrodning Nyquist diagrammasi

Ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan grafit elektrodning selektivligi As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda turli begona ionlar ishtirokida sinovdan o‘tkazildi.

5-jadval

Hg(II) ionini aniqlashda xalaqit beruvchi ionlar ta’siri

($C_{Hg(II)}$=15 µg/l, Fon: Britton–Robinson bufer, pH = 5,0–6,0, 2,5 µA, $E_{to‘p}$=−0,8 V, $t_{to‘p}$=140 s.)

[Hg]:[X]	Topilgan Hg, µg/l	N	S	S_r
Hg:Cu(II) 1:20	13,92 ± 3,17	5	2,55	0,183
Hg:Cd(II) 1:50	14,90 ± 0,47	5	0,38	0,026
Hg:Pb(II) 1:25	14,79 ± 0,59	5	0,47	0,032
Hg:Zn(II) 1:100	14,96 ± 0,42	5	0,34	0,023
Hg:Fe(III) 1:10	14,87 ± 0,54	5	0,44	0,029
Hg:Ni(II) 1:30	14,88 ± 0,53	5	0,42	0,028
Hg:Co(II) 1:30	14,84 ± 0,57	5	0,46	0,031
Hg:Mn(II) 1:80	14,91 ± 0,61	5	0,49	0,033
Hg:Cr(III) 1:20	14,73 ± 0,69	5	0,56	0,038
Hg:Cl^- 1:300	14,76 ± 0,66	5	0,53	0,036

Hg(II) ionlari uchun eng sezilarli xalaqit Cu(II) ionlari ishtirokida kuzatildi; boshqa ionlar (Cd^{2+}, Pb^{2+}, Zn^{2+}, Fe^{3+}, Ni^{2+}, Co^{2+}, Mn^{2+}, Cr^{3+}, Cl^-) ta’siri minimal bo‘ldi. Topilgan Hg(II) qiymatlari 13,92–14,96 µg/l oralig‘ida bo‘ldi.

6-jadval

As(III) ionini aniqlashda xalaqit beruvchi ionlar ta’siri

($C_{As(III)}$=20 µg/l, Fon: Britton–Robinson bufer, pH = 5,0–6,0, 2,5 µA, $E_{to‘p}$=−0,8 V, $t_{to‘p}$=120 s.)

[As]:[X]	Topilgan As, µg/l	n	S	S_r
As:Cu(II) 1:5	18,64 ± 3,61	5	2,91	0,156
As:Pb(II) 1:30	19,84 ± 0,70	5	0,56	0,028
As:Hg(II) 1:10	19,58 ± 0,91	5	0,73	0,037
As:Cd(II) 1:50	19,92 ± 0,63	5	0,51	0,026
As:Zn(II) 1:80	19,88 ± 0,74	5	0,60	0,030
As:Fe(III) 1:20	18,42 ± 3,74	5	3,01	0,163
As:Ni(II) 1:30	19,82 ± 0,72	5	0,58	0,029
As:Co(II) 1:30	19,76 ± 0,78	5	0,63	0,032
As:Mn(II) 1:70	19,94 ± 0,81	5	0,65	0,033
As:Cl^- 1:250	19,48 ± 1,02	5	0,82	0,042

As(III) ionlari uchun eng sezilarli xalaqit Cu(II) va Fe(III) ionlari birgalikda mavjud bo‘lgan sharoitlarda kuzatildi, boshqa ionlarning ta’siri esa nisbatan kam. Topilgan As(III) qiymatlari 18,42-19,94 µg/l oralig‘ida bo‘ldi.

Ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan elektrod model aralashmalar tahlilida qo‘llandi. Bunda turli begona ionlar ishtirokida As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash imkoniyati baholandi. Tahlil natijalari elektrod yordamida ushbu ionlarni bir nechta begona ionlar ishtirokidagi murakkab tarkibli muhitlarda ham aniq va barqaror aniqlash mumkinligini ko‘rsatdi. Begona ionlarning birgalikdagi ta’siri baholanganda, eng katta xalaqit Cu(II), Fe(III), Pb(II), Hg(II) va Cl^- ionlari mavjud bo‘lgan aralashmalarda kuzatildi. Shunga qaramay, aniqlangan miqdorlar kiritilgan mishyak va simob uchun mos ravishda 20 µg/l va 15 µg/l konsentratsiyadan sezilarli farq qilmadi. Kiritilgan va topilgan miqdorlarning o‘zaro muvofiqligi tekshirilgan aralashmalar tarkibidagi begona ionlar ta’siri aniqlash natijalarini keskin o‘zgartirmaganini ko‘rsatdi. Olingan natijalar modifikatsiyalangan elektrodning tekshirilgan sharoitlarda yetarli selektivlikka ega ekanligini hamda ko‘p komponentli eritmalarda As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash uchun qo‘llanish

imkoniyatini tasdiqladi.

7-jadval

Model aralashmalarda As(III) ionini aniqlash natijalari

($C_{As(III)}$=20 µg/l, Fon: Britton–Robinson bufer, pH = 5,0–6,0, 2,5 µA, $E_{to'p}$=−0,8 V, $t_{to'p}$=120 s.)

Ion	Namunadagi komponentlar konsentratsiyasi va aralashma tarkibi, µg/l	Topilgan ion, µg/l	n	S	Sr
As(III)	As(20) + Cd(20) + Pb(100)	19,57 ± 0,42	5	0,368	0,019
	As(20) + Ni(10) + Co(5)	19,56 ± 0,26	5	0,224	0,011
	As(20) + Ni(15) + Co(20)	19,54 ± 0,30	5	0,262	0,013
	As(20) + Zn(150) + Pb(30)	19,60 ± 0,37	5	0,325	0,017
	As(20) + Zn(200) + Pb(100)	19,53 ± 0,41	5	0,356	0,018
	As(20) + Pb(150) + Zn(50) + Ni(20)	19,52 ± 0,47	5	0,408	0,021
	As(20) + Ni(50) + Zn(40) + Cu(30)	19,49 ± 0,49	5	0,426	0,022
	As(20) + Zn(80) + Pb(120)	19,59 ± 0,41	5	0,352	0,018
	As(20) + Cu(30) + Pb(50)	19,50 ± 0,49	5	0,423	0,022
	As(20) + Cu(30) + Hg(20) + Fe(50)	19,58 ± 0,55	5	0,480	0,024

8-jadval

Model aralashmalarda Hg(II) ionini aniqlash natijalari

($C_{Hg(II)}$=15 µg/l, Fon: Britton–Robinson bufer, pH = 5,0–6,0, 2,5 µA, $E_{to'p}$=−0,8 V, $t_{to'p}$=140 s.)

Ion	Namunadagi komponentlar konsentratsiyasi va aralashma tarkibi, µg/l	Topilgan ion, µg/l	n	S	S_r
Hg(II)	Hg(15) + Cr(40) + Cu(20)	14,57 ± 0,42	5	0,367	0,025
	Hg(15) + Cr(40) + Cd(10)	14,58 ± 0,38	5	0,332	0,023
	Hg(15) + Cr(20) + Pb(150)	14,57 ± 0,44	5	0,389	0,027
	Hg(15) + Cr(20) + Cd(20) + Cu(100)	14,56 ± 0,47	5	0,412	0,028
	Hg(15) + Cr(50) + Fe(150) + + Mn(100)	14,57 ± 0,46	5	0,399	0,027
	Hg(15) + Cr(30) + Cd(20) + Cu(100) + Fe(300)	14,51 ± 0,54	5	0,470	0,032
	Hg(15) + Cu(50) + Pb(50) + Zn(100)	14,52 ± 0,47	5	0,407	0,028
	Hg(15) + Ni(40) + Co(40) + Mn(80)	14,48 ± 0,52	5	0,452	0,031
	Hg(15) + Fe(100) + Cl^-(5000)	14,51 ± 0,49	5	0,426	0,029
	Hg(15) + Cu(50) + Fe(150) + + Pb(100)	14,45 ± 0,57	5	0,493	0,034

Chiziqli aniqlash oralig'i, kalibrlash va sezgirlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. As(III) ionlari uchun chiziqli aniqlash oralig'i 1,0–100 µg/l, Hg(II) ionlari uchun esa 0,5–80 µg/l ni tashkil etdi. Kalibrlash tenglamalari quyidagicha aniqlangan: As(III) uchun Ip = 0,084C + 0,012, Hg(II) uchun esa Ip = 0,126C + 0,009. Determinatsiya koeffitsiyenti (R^2) As(III) uchun 0,9986, Hg(II) uchun 0,9991 bo'lib, uslubning chiziqliligi va ishonchliligini tasdiqlaydi. Aniqlashning past chegaralari (LOD) va aniqlash chegaralari (LOQ) As(III) uchun mos ravishda 0,18 µg/l va 0,55 µg/l, Hg(II) uchun esa 0,07 µg/l va 0,22 µg/l qiymatlarini tashkil etdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan grafit elektrod past konsentratsiyadagi As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda yuqori sezgirlikka ega bo'lib, kalibrlash grafiklarining chiziqliligi va R^2 qiymatlari esa uslubning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Ishlab chiqilgan elektrod yordamida daryo suvi, yer osti suvi, oqova suv va sanoat zonasi suvlaridan namuna olingan va tahlil qilingan. Suv namunalarini membrana filtrdan o‘tkazish, zarur hollarda nitrat kislota bilan barqarorlashtirish va pH 5–6 oralig‘iga keltirish orqali tayyorlash amalga oshirildi. Voltamperometrik o‘lchashlar optimallashtirilgan sharoitlarda bajarildi.

Real suv namunalarida ishlab chiqilgan elektrod yordamida As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlash amalga oshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki: daryo suvida As(III) va Hg(II) miqdori LOD dan past, yer osti suvida As(III) 0,96 µg/l, Hg(II) <LOD, oqova suvda As(III) 1,52 µg/l, Hg(II) 0,28 µg/l, sanoat zonasi suvlarida esa As(III) 2,85 µg/l, Hg(II) 0,48 µg/l miqdorida aniqlangan.

9-jadval

Real suv namunalarida As(III) va Hg(II) ionlarini voltamperometrik usulda aniqlash natijalari

№	Namuna	As(III), µg/l	Hg(II), µg/l
1	Daryo suvi	<LOD	<LOD
2	Yer osti suvi	0,96	<LOD
3	Oqova suv	1,52	0,28
4	Sanoat zonasi suvi	2,85	0,48

Kiritildi–topildi usuli yordamida suv namunalarining qayta topilish darajasi baholanib, As(III) 98,0–102,8%, Hg(II) 97,6–102,4%; nisbiy standart chetlanish Sr <0,05 ekanligi aniqlandi (10-jadval).

10-jadval

Real suv namunalarida As(III) va Hg(II) ionlarini kiritildi–topildi usuli yordamida aniqlash natijalari

Namuna	Ion	Dastlab topilgan miqdor, µg/l	Kiritildi, µg/l	Topildi, µg/l	Recovery, %	n	S	S_r
Daryo suvi	As(III)	<LOD	20,0	19,6	98,0	5	0,43	0,022
	Hg(II)	<LOD	5,00	4,90	98,0	5	0,09	0,018
Yer osti suvi	As(III)	0,96	20,0	20,9	99,7	5	0,56	0,027
	Hg(II)	<LOD	5,00	4,95	99,0	5	0,11	0,022
Oqova suv	As(III)	1,52	20,0	21,3	98,9	5	0,49	0,023
	Hg(II)	0,28	5,00	5,16	97,6	5	0,16	0,031
Sanoat zonasi suvi	As(III)	2,85	20,0	23,4	102,8	5	0,67	0,029
	Hg(II)	0,48	5,00	5,60	102,4	5	0,14	0,025

ICP va RFA/XRF usullari yordamida olingan natijalar bilan solishtirish amalga oshirildi. Voltamperometrik usul As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda ICP natijalari bilan yaxshi moslikni ko‘rsatdi, RFA esa yordamchi tasdiqlovchi usul sifatida ishlatildi (11-jadval).

11-jadval

Real suv namunalarida mishyak va simob ionlarini aniqlash natijalarining ICP va RFA/XRF natijalari bilan solishtirilishi

Namuna	Ion	Voltamperometrik usul, µg/l	ICP, µg/l	RFA, µg/l	ICP ga nisbatan farq, %	RFA ga nisbatan farq, %
Daryo suvi	As(III)	<LOD	<LOD	<LOD	–	–
	Hg(II)	<LOD	<LOD	<LOD	–	–
Yer osti suvi	As(III)	0,96	1,02	1,08	5,88	11,11
	Hg(II)	<LOD	<LOD	<LOD	–	–
Oqova suv	As(III)	1,52	1,57	1,64	3,18	7,32
	Hg(II)	0,28	0,29	0,31	3,45	9,68
Sanoat zonasi suvi	As(III)	2,85	2,92	3,04	2,40	6,25
	Hg(II)	0,48	0,50	0,52	4,00	7,69

Shu bilan real suv namunalarida olingan natijalar ishlab chiqilgan elektrod va voltamperometrik usulning amaliy qo‘llanishi uchun yetarli sezgirlik, takrorlanuvchanlik va ishonchliligini ko‘rsatdi. As(III) va Hg(II) ionlari miqdori daryo suvlari < yer osti suvlari < oqova suvlari < sanoat zonasi suvlari ketma-ketligida kuzatildi, eng yuqori miqdor sanoat zonalaridan olingan suv namunalarida qayd etildi.

XULOSALAR

1. Mishyak(III) va simob(II) ionlarini inversion voltamperometrik usulda aniqlash uchun grafit asosidagi modifikatsiyalangan elektrod ishlab chiqishning ilmiy asoslari belgilandi. Grafit asosning elektr o‘tkazuvchanligi, kimyoviy barqarorligi va elektrokimyoviy jarayonlar uchun qulayligi uni ishchi elektrod modifikatori sifatida tanlashga asos bo‘ldi.
2. Grafit asosidagi ishchi elektrod uchun turli modifikatorlarning analitik samaradorligi qiyosiy baholandi. Olingan natijalar grafen oksidi/tiomochevina kompozitsiyasi As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda eng yuqori tok kuchi, selektivlik va barqarorlik ta’minlashini ko‘rsatdi. Shu sababli, grafen oksidi/tiomochevina kompozitsion modifikatori maqbul faol komponent sifatida tanlandi.
3. Modifikatsiyalangan elektrod tarkibi va tayyorlash sharoitlari optimallashtirildi. Eng maqbul tarkib sifatida 65% grafit kukuni, 20% grafen oksidi/tiomochevina modifikatori va 15% tritolilfosfat tanlandi. Modifikatsiya jarayoni uchun optimal harorat 60 °C deb belgilandi. IQ-spektral, SEM va EDS tahlillari modifikatorning hosil bo‘lgani hamda elektrod yuzasida muvaffaqiyatli shakllangani tasdiqlandi. Siklik voltamperometriya asosida Rendles–Shevchik tenglamasi yordamida elektroaktiv yuza baholandi, elektrokimyoviy impedans spektroskopiyasida esa Nyquist diagrammalari orqali zaryad ko‘chish qarshiligi kamaygani aniqlandi.
4. As(III) va Hg(II) ionlarini aniqlashda fon elektrolit turi, eritma pH qiymati, to‘planish potensiali va to‘planish vaqtining analitik signalga ta’siri o‘rganildi. Eng maqbul sharoit sifatida Britton-Robinson bufer eritmasi, pH 5,0–6,0,

to‘planish potensiali –0,8 V, to‘planish vaqti mishyak uchun 120 sekund va simob uchun140 sekund tanlandi. Ushbu sharoitlarda analitik signal yuqori, barqaror va takrorlanuvchan bo‘lishi aniqlandi.

5. Ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan elektrod yordamida As(III) va Hg(II) ionlari uchun chiziqli aniqlash oralig‘i, aniqlash chegarasi va miqdoriy aniqlash chegarasi baholandi. As(III) ionlari uchun chiziqli aniqlash oralig‘i 1,0–100 µg/l, Hg(II) ionlari uchun esa 0,5–80 µg/l ni tashkil etdi. Aniqlash chegarasi As(III) uchun 0,18 µg/l, Hg(II) uchun 0,07 µg/l, miqdoriy aniqlash chegarasi esa mos ravishda 0,55 µg/l va 0,22 µg/l bo‘ldi.

6. Ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan elektrodning metrologik ko‘rsatkichlari va analitik imkoniyatlari baholandi. “Kiritildi–topildi” usuli bo‘yicha qayta topilish darajasi As(III) uchun 98,0–102,8%, Hg(II) uchun 97,6–102,4% oralig‘ida bo‘ldi, nisbiy standart chetlanish qiymatlari esa barcha holatlarda Sr < 0,05 ni tashkil etdi. Real suv namunalarida daryo suvida As(III) va Hg(II) aniqlash chegarasidan past bo‘ldi, yer osti suvida As(III) 0,96 µg/l, oqova suvda As(III) 1,52 µg/l va Hg(II) 0,28 µg/l, sanoat zonasi suvida esa As(III) 2,85 µg/l va Hg(II) 0,48 µg/l miqdorda aniqlandi. Voltamperometrik natijalarning ICP va rentgen-fluoressent analiz natijalari bilan mos kelganligi ishlab chiqilgan usulning real suv obyektlarida As(III) va Hg(II) ionlarini sezgir, tanlovchan hamda ishonchli aniqlash uchun qo‘llash mumkinligini tasdiqladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.К.01.13.М ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

БОКИЕВ КУДРАТ СИРОЖИДДИН УГЛИ

РАЗРАБОТКА ЭЛЕКТРОХИМИЧЕСКИХ СЕНСОРОВ НА ОСНОВЕ МОДИФИЦИРОВАННОГО ГРАФИТА ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ИОНОВ МЫШЬЯКА И РТУТИ

02.00.02-Аналитическая химия

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.1.PhD/K1116.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (ik-kimyo.nuu.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Зияев Дилшод Абдуллаевич** доктор химических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Абдурахмонов Эргашбой** доктор химических наук, профессор
	Яхшиева Зухра Зиятовна доктор химических наук, профессор
Ведущая организация:	Институт общей и неорганической химии

Защита диссертации состоится "01" 12. 2026 г. в 14^{00} часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.K.01.13.M при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская, дом 4, Тел.: (+99871) 246-07-88, 277-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за №299). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (+99871) 246-07-88, 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz

Автореферат диссертации разослан "20" 11. 2026 г.
(протокол рассылки №37 от "18" 11. 2026 г.)

Т.С.Холиков
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.х.н., профессор

У.У.Рузметов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.х.н., и.о. профессор

З.А.Сманова
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению учёных
степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в мире вследствие интенсивного развития промышленности, деятельности горнодобывающих и металлургических предприятий, добычи и переработки топливных ресурсов возрастает загрязнение объектов окружающей среды соединениями мышьяка и ртути. Высокая токсичность этих элементов, их биоаккумуляция в живых организмах и негативное воздействие на здоровье человека даже при очень низких концентрациях обусловливают необходимость их оперативного и достоверного определения. Поэтому разработка модифицированных электрохимических сенсоров для определения ионов As(III) и Hg(II), обладающих высокой чувствительностью и селективностью, экономической эффективностью и простотой изготовления, а также их применение при анализе природных и техногенных водных объектов имеют важное практическое значение.

В мировой научной литературе представлены многочисленные исследования, посвящённые разработке электродов, модифицированных различными наноматериалами, органическими реагентами и функциональными группами, для определения ионов тяжёлых и токсичных металлов. В частности, установлено, что электрохимическая активность, сорбционные свойства и селективность электродов, изготовленных на основе оксида графена, серо- и азотсодержащих органических соединений, по отношению к ионам металлов зависят от природы, состава и количества модификатора, структуры поверхности электрода, состава фонового электролита, значения pH раствора, потенциала и времени накопления. С учётом этого важное научное значение имеют выбор оптимального состава модификатора оксид графена/тиомочевина, определение его активных центров на поверхности графитового электрода, изучение закономерностей накопления и электрохимического окисления ионов As(III) и Hg(II), а также теоретическое и экспериментальное обоснование взаимосвязи между структурой электрода и его аналитическими характеристиками.

В нашей республике развитие горнодобывающей, металлургической и химической промышленности, а также глобальные климатические изменения приводят к загрязнению природных и техногенных вод такими токсичными элементами, как мышьяк и ртуть. Для определения этих элементов проводятся исследования по разработке чувствительных, селективных и малозатратных модифицированных электрохимических сенсоров. Кроме того, в Стратегии перехода Республики Узбекистан к “зелёной” экономике определены приоритетные задачи, направленные на “сбережение водных ресурсов, их рациональное использование и предотвращение загрязнения”. В этой связи в последние годы Правительство Узбекистана уделяет особое внимание охране водных ресурсов, контролю их качества и совершенствованию системы экологического мониторинга в соответствии с международными стандартами. В частности, указанные задачи нашли отражение в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-6024 от 2020 года “Об утверждении Концепции

развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы” и постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-436 от 2022 года “О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на “зелёную” экономику до 2030 года”.

Результаты настоящего диссертационного исследования в определённой степени служат выполнению задач, предусмотренных указами Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 О Стратегии “Узбекистан – 2030”, от 16 февраля 2026 года №УП-21 “О дополнительных мерах по реализации приоритетных направлений развития страны до 2030 года”, от 30 октября 2019 года №УП-5863 “Об утверждении Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан на период до 2030 года”, постановлением Президента Республики Узбекистан от 12 августа 2020 года №ПП-4805 “О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки по направлениям Химия и Биология”, а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере деятельности.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII. “Химия, химические технологии и нанотехнологии”.

Степень изученности проблемы. Определение ионов мышьяка(III) и ртути(II) в природных и техногенных водах в последние годы является предметом многочисленных научных исследований. При контроле загрязнения указанными элементами важное значение имеет достоверное определение их низких концентраций. В связи с этим особое внимание уделяется разработке чувствительных, селективных электрохимических методов определения ионов As(III) и Hg(II) в пробах воды, обеспечивающих повторяемость результатов.

В мировой практике исследований по электрохимическому определению ионов мышьяка и ртути предложены различные подходы, основанные на использовании разнообразных электродных материалов и модификаторов. В этих работах изучены вопросы предварительного накопления определяемых компонентов на поверхности электрода, снижения мешающего влияния посторонних ионов и обеспечения стабильности аналитического сигнала. Многочисленные исследования в данном направлении проведены зарубежными учёными А.А.Шеремет, С.С.Ермаков, Л.Н.Москвин, Б.П.Шипунов, И.Э.Стась, Т.А.Пельганчук, Н.П.Матвейко, А.И.Кулак, C.Garnier, L.Lesven, G.Billon, A.Magnier, O.Mikkelsen, M.Chao, C.Ma, Г.М.Загоровский, И.Г.Сидоренко, S.N.Limaye, Д.А.Дедкова, С.В.Лукашов, Dongpeng Mao, Penghu Duan, Yunxian Piao, Г.К.Будников, Г.А.Евтюгин, В.Н.Майстренко и другими.

